



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## INGLIZ TILINING GLOBAL TIL SIFATIDAGI AHAMIYATI

**Quvvatova Dilnura Boymurod qizi**

*2-kurs Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz filologiyasi va  
tarjimashunoslik fakulteti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada ingliz tilining global til sifatidagi o'rni va turli xil sohalarda gi ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz tili xalqaro sohalarda yani muloqot, ta'lim, ILM-fan, biznes, texnologiya va madaniyat kabilardagi roli batafsil yoritiladi*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili, xalqaro sohalar, texnologiyalar, global til, globallashuv*

### **Kirish**

Hozirgi globallashib borayotgan dunyoda, tillarning o'rni beqiyos ortib bormoqda. Turli davlatlar va xalqlar o'rtasida muloqot uchun Mos yani universal tilga ehtiyoj sezilyapdi. Shu sababdan, ingliz tili dunyo miqyosida keng tarqalgan. Ingliz tilining biznes va madaniyat sohaslarida ham o'rni beqiyosdir. Ingliz tilining bunday beqiyos o'rni, uning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati bilan o'zaro bog'liqdir

Ingliz tilining xalqaro muloqotdagi o'rni

Ingliz tili 21 asrda xalqaro kommunikatsiyaning asosiy vositasi xisoblanadi. Turli mamlakatlar bir biri bilan muloqot qilyotganda ko'pincha ingliz tilidan foydalanishadi. Bundan tashqari, turli xil forumlar, dunyoning yetakchi tashkilotlarining rasmiy forumlarida ham ingliz tili asosiy til hisoblanadi

Ingliz tilining ta'lim va ilm-fandagi ahamiyati

Ingliz tili ilm-fan va ta'lim sohasida ham yetakchi o'ringa egadir. Bilishimiz kerakki, dunyoning top universitetlarida, ya'ni Harvard, Kembrij va Oksford kabilarda ham o'quv jarayonlari aynan ingliz tilida olib boriladi. Shuningdek, xalqaro jurnallar, ilmiy maqolalar ham ingliz tilida chop etiladi.

Ingliz tilini bilgan mahalliy hamda boshqa mamlakat talabalari top universitetlardagi grantlarda va ilmiy konferensiyalarda qatnashishlari mumkin. Fikrimcha, ingliz tili ilm-fan rivoji uchun, nafaqat bilimlarini tarqatishning vositasidir.

Ingliz tilining madaniyat va media sohasidagi o'rni

Ingliz tili madaniy sohalardagi o'rni ham beqiyosdir. Qayerga qaramayki, ingliz tilidagi bestseller kitoblar va kinolarni uchratishimiz mumkin. Turli xil platformalar ham ingliz tilida yuritiladi.

Bundan tashqari, madaniyatga aloqador bo'lgan turizm sohasi ham ingliz tili bilan chambarchas bog'liqdir. Sayohat va turizm ham xalqaro darajalar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli, sayyohlik agentliklarida ham ingliz tili keng miqyosda foydalaniladi.

Ingliz tilining biznes va iqtisodiyotdagi roli.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Biznesda, ingliz tili — bu universal til hisoblanadi. Ko'plab kompaniyalarning turli xil shartnomalari, ish hujjatlari ingliz tilidadir. Bundan tashqari, ingliz tilini bilgan mutaxassislar kasbiy rivojlanishda va yuqori maoshli ish o'rinlarini topa olishi mumkin.

### **Xulosa.**

Ingliz tili globallashtayotgan ekan, yoshlarning ingliz tilini o'rganishi dunyo miqyosida muvaffaqiyatga erishishning yagona va asosiy yo'llaridan biridir. Ingliz tili dunyoda muhim bir strategik o'ringa egadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi".
2. Crystal David "The revolution Language".
3. Crystal David "English as a Global Language".

